

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022-yil 1-avgust holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*


Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

4

35 644



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4834



Oilaviy korxonona

200



Unitar korxonona

6190



Xususiy korxonona

47



Aksiyadorlik jamiyati


311



Boshqa korxonalar


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni



(yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,3** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,8** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



458

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

8 868

Ishlab chiqarish sanoati

55

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

179


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 9560 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 3,4 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 1,5 %ga (jami sanoatdagi ulushi 4,8 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 14,1 %ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 6,3 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) kamaygan.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,3** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




4,4 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



6,5 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **16,7** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 996 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3%ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 5,6%ga (jami qurilishdagi ulushi 53,1%), fuqarolik obyektlarini qurish – 26,0%ga (jami qurilishdagi ulushi 9,3%), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 1,7%ga (jami qurilishdagi ulushi 37,6%) kamayishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 15 771 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,7%ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 8,5%ga (jami savdodagi ulushi 67,2%), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 19,6%ga (jami savdodagi ulushi 25,7%), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 15,6%ga (jami savdodagi ulushi 7,1%) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

837



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

33



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

32



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



380

yashash bo'yicha xizmatlar



3 536


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 916 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 5,1 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,3 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 9,8 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,7 %) o'sishidir.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni


(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 5326 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 474 taga yoki 9,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 834 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 409 taga yoki 9.2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyul oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 518 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 215 taga yoki 29,3 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 38 654 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2558 taga yoki 7,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 35 644 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 222 taga yoki 9,9 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3342 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 542 taga yoki 14,0 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, 1 641 tani tashkil etib, ulardan 1 556 tasi yoki 94,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 108 taga yoki 7,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 142 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi
(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1641	745	896
Oqqo'rg'on t.	20	6	14
Ohangaron t.	89	33	56
Bekobod t.	9	5	4
Bo'stonliq t.	72	38	34
Bo'ka t.	15	5	10
Quyichirchiq t.	54	27	27
Zangiota t.	207	87	120
Yuqorichirchiq t.	124	55	69
Qibray t.	179	78	101
Parkent t.	29	12	17
Piskent t.	25	10	15
O'rta Chirchiq t.	105	40	65
Chinoz t.	30	13	17
Yangiyo'l t.	96	34	62
Toshkent t.	91	52	39
Nurafshon sh.	76	30	46
Olmaliq sh.	53	16	37
Angren sh.	111	73	38
Bekobod sh.	31	20	11
Ohangaron sh.	47	24	23
Chirchiq sh.	106	62	44
Yangiyo'l sh.	72	25	47

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot displays the official website of the State Committee for Statistics of the Republic of Uzbekistan. The main header includes the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. Below the header is a navigation bar with links to 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is divided into three columns. The left column, titled 'RASMIY STATISTIKA', lists various statistical services. The middle column contains a form for entering STIR codes, with a dropdown menu open showing options like 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The right column, titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR', provides links to various useful information sections. The URL at the bottom left is <https://stat.uz/uz/hizmatlar/klassifikatsiya>.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.: (71) 202-86-83